

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Аликариева Аълохон Нуриддиновна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
и.о. доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)
Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тилипов Файзулла Саидович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)
Абдуллаев Сардорбек Усмонхужаевич
доктор философии по социологическим наукам, доцент
(Узбекистан)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: @devdasdesign

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Alikariyev Nuriddin OLIY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI MEHNAT SAMARADORLIGINING TAHLILI.....	4
2. Parmanov Farxod, Xudayarov Ixomjon SOTSIAL MOBILLIK PARADIGMASINING ETNOMADANIY INTEGRATSIYALASHUV TENDENSIYALARI.....	12
3. Турсунов Диёр, Сеитов Азамат ВЛИЯНИЕ ИНТЕРНЕТ-СМИ НА ПОЛИТИЧЕСКУЮ СОЦИАЛИЗАЦИЮ (НА ПРИМЕРЕ ПРОТЕСТОВ В РОССИИ 2017-2018 ГОДА).....	19
4. Sog'inov Nurmat AMALIYOTCHI PSIXOLOG MUTAXASSISLARNI TAYYORLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI.....	29
5. Zaitov Elyor MAHALLANING O'RGANILISHIDA TARIXIY YONDASHUV.....	38
6. Алексеева Виктория СОЦИАЛЬНАЯ МОБИЛЬНОСТЬ ЖЕНЩИН В УСЛОВИЯХ ФОРМИРУЮЩЕГОСЯ ГЕНДЕРНОГО ПОРЯДКА ДОСТИЖЕНИЯ РАВЕНСТВА.....	49
7. Kayumov Kaxramon DEVIANT HULQ-ATVOR PROFILAKTIKASINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	57
8. Abdullaev Akmal Gadaymurodovich SIVILIZATSION YONDASHUV SOTSIOLOGIK TADQIQOTLARNING METODOLOGIK BAZASI SIFATIDA.....	63
9. Mahammadjanov G'olibjon GLOBALLASHUV DAVRIDA JAMIYATDA IJTIMOIIY ONG TIZIMIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONLARI (Sinergetik yondashuv).....	71
10. Qozoqov Sobirjon O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI QO'LLAB-QUVVATLASHNING IJTIMOIIY OMILLARI.....	76
11. Нуруллаева Джамиля СПОРТ КАК СОЦИАЛЬНОЕ ЯВЛЕНИЕ.....	83
12. Mahammadjanov G'olibjon JAMIYATDA IJTIMOIIY ONG TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR: SOTSIOLOGIK YONDASHUV VA TAHLIL.....	90


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Mahammadjanov G'olibjon,

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ma'sul xodimi,
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (Phd)
e-mail: galibmahamadzanov@gmail.com

GLOBALLASHUV DAVRIDA JAMIYATDA IJTIMOYIY ONG TIZIMIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONLARI (Sinergetik yondashuv)

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.11052537>

ANNOTATSIYA

Maqolada jamiyatda ijtimoiy institutlar, xususan, ijtimoiy ong, uning shakllari faoliyatidagi o'zgarishlar, ularning transformatsiyalashuvi jarayoniga nisbatan turlicha qarashlar asosida ta'riflar, shu nuqtai nazardan, avvalo, mutaxassislar tomonidan ushbu tushunchaning mazmun-mohiyatini, ilmiy konseptual asoslari, ushbu jarayonda jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni, xususan, ijtimoiy ong va uning shakllariga xos o'zgarishlarning davlat va jamiyat boshqaruviga ta'siri tadqiq etilgan. Shu bilan birga, globallashuv ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy o'zgarishlarga sabab bo'lili muqarrarligi, uni avvalo fuqarolar ijtimoiy munosabatlarida o'zgarishga ta'siri ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Bu jarayonda fuqarolarni yagona maqsadlar asosida birlashtirish masalasi doimiy jarayon sifatida o'rganilishi zarurligi farazi berilgan. Jarayonga sinergetik yondashuv, ya'ni fuqarolarning birlashtirishda ijtimoiy ongiga ijobiy ta'sir etishi imkoniyatlari va shart-sharoitlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tizimi, ijtimoiy ong, sotsiologik tahlil, muntazamlilik, sinergetika, ijtimoiy institutlar, transformatsiya, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar, evolyutsiya, ta'sir jarayonlari, davlat, jamiyat, fuqarolar.

Махаммаджанов Голибжон,

Руководитель отдела социально-правового медиацентра
Олий Мажлис Республика Узбекистан,
доктор философии по политологии (PhD)
e-mail: galibmahamadzanov@gmail.com

ПРОЦЕССЫ ТРАНСФОРМАЦИИ В СИСТЕМЕ СОЦИАЛЬНОГО СОЗНАНИЯ В ОБЩЕСТВЕ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ (Синергетический подход)

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются социальные институты в обществе, в частности, общественное сознание, изменения в деятельности его форм, определения, основанные на различных взглядах на процесс их трансформации, влияние общественного сознания и характерных для его форм изменений на государственное и общественное управление. Научно исследована неизбежность глобализации как причины социальных, политических и духовных изменений, прежде всего ее влияние на изменения в социальных отношениях. При этом

предполагается, что вопрос объединения граждан на основе общих целей должен изучаться как непрерывный процесс. Используется синергетический подход к процессу, то есть возможности и условия позитивного воздействия на общественное сознание граждан при объединении.

Ключевые слова: социальная система, общественное сознание, социологический анализ, закономерность, синергетика, социальные институты, трансформация, общественно-политические отношения, эволюция, процессы влияния, государство, общество, граждане.

Mahammadzhanov Golibjon,

Head of Department of Social Legal Media Center of
Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan,
Doctor of Philosophy in Political Science (PhD)
e-mail: galibmahamadzanov@gmail.com

PROCESSES OF TRANSFORMATION IN THE SYSTEM OF SOCIAL CONSCIOUSNESS IN SOCIETY DURING GLOBALIZATION (A synergistic approach)

ABSTRACT

The article examines social institutions in society, in particular, social consciousness, changes in the activities of its forms, definitions based on different views on the process of their transformation, the influence of social consciousness and changes characteristic of its forms on state and public administration. The inevitability of globalization as a cause of social, political and spiritual changes, primarily its impact on changes in social relations, has been scientifically studied. It is assumed that the issue of uniting citizens on the basis of common goals should be studied as a continuous process. A synergetic approach to the process is used, that is, the possibilities and conditions for a positive impact on the public consciousness of citizens during unification.

Key words: social system, social consciousness, sociological analysis, regularity, synergetics, social institutions, transformation, socio-political relations, evolution, influence processes, state, society, citizens.

KIRISH

Ijtimoiy institutlarning transformatsiyalashuvini o'rganish davomida uning sabablari, mohiyati, evolyutsiyasi va oqibatlarining aniq bir mezon asosida tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Zero, bu jarayon davlat boshqaruvi va uning asosiy institutlari negizida sodir bo'lishini doimo hisobga olish zarur. Chunki, siyosiy institutlarning jamiyat siyosiy hayotidagi ahamiyati – davlat boshqaruvining hamda siyosiy tizimini mustahkamlash omili bilan bog'liq ekanligida ko'rinadi. Bunda siyosiy tizimning kelajakdagi barqarorligi imkoniyatlarini aniqlash, uning taraqqiyot trayektoriyalarini belgilash imkoniyatlari shakllanadi. Zamonaviy jamiyat qurish va ularning keyingi rivojlanish istiqbollari belgilashda ijtimoiy ong transformatsiyalashuvi sabablari, ta'siri natijasida ijtimoiy-siyosiy munosabatlariga xos yangi jarayonlarni sotsiologik jihatdan tadqiq etish – davlat boshqaruvining yangi bosqichga ko'tarish izchilligini (evolyutsiyasini) ta'minlashga xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Jamiyatdagi ijtimoiy institutlarning o'zgarishi, transformatsiyalashuvi bilan bog'liq aksariyat qarashlarda siyosiy tizimning o'z maqsad va vazifalarini bajara olmasligi bilan bog'liq qarashlar yetakchi o'rin egallaydi. Zero, ijtimoiy-siyosiy institutlarning transformatsiyalashuvi, uning o'zgarish va paydo bo'lish sabablarini aniqlash asosida davlat boshqaruvining qaysi obyektlarida sodir bo'lishiga oydinlik kiritish muhimdir. Chunki, transformatsiyalashuv – ijtimoiy-siyosiy ehtiyoj sifatida mavjud boshqaruvning samarali yoki samarasiz faoliyatini ko'rsatib berishning ko'rsatkichi hamdir. Bunda jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy ong darjasida ham jiddiy o'zgarishlar bo'ladi.

Rossiyalik olim I.A.Bikovning ta'kidlashicha «Binobarin, har qanday jamiyat shunchaki ijtimoiy institutlarga muhtojdir, bu jarayon, ayniqsa, ularning modernizatsion jarayonlar avj olishi natijasida texnologik taraqqiyotni nazorat qilish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qodirligi bilan

izohlanadi» [1, – C.200]. Bunda muallif o‘zgarayotgan jamiyatlarda yangi g‘oyalar, qarashlar(ijtimoiy ong shakllarini) shakllanishini hisobga olgan holda ularni tartibga solish mexanizmlari zaruriyatini nazarda tutadi.

Ilmiy adabiyotlarda transformatsiya – ijtimoiy tizimning immanent umumiy sifat xususiyati bo‘lib, tizim bir strukturaviy tuzilmadan rivojlangan barqaror tizimga almashadi. U tizimning butun mazmun-mohiyatidagi o‘zgarish, shaxs va institutlarning tabiiy rivojlanish qonuniyatlari asosida maqsadga yo‘naltirilgan faoliyati o‘zgarishi sifatida talqin etiladi. Boshqacha aytganda, siyosiy institutlarning yangi siyosiy jarayonlar (munosabatlar)ni tartibga solish, ularga moslashuvchanlik darajasi bilan ifodalasak bo‘ladi.

ASOSIY QISM

Bugungi kunda olimlar siyosiy institutlar va ularning transformatsiyalashuvi bilan bog‘liq muammolarning tahlil va tadqiq etishda ularning aksariyatida davlat boshqaruviga ta‘siri nuqtai nazaridan qarashlar, xususan, jamiyatda sodir bo‘ladigan transformatsiya jarayoni uzoq muddatli siyosiy jarayon ekanligi, bu o‘tish davri munosabati bilan qonunchilikni yangilash, yangi iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi, jamiyatda legitimlik xususiyatlari yangi bosqichga ko‘tarilishi hamda shunga mos ravishda siyosiy institutlarning siyosiy jarayonlardagi roli oshib borishi holati sifatida o‘rganishlarni talab qilayotganligi ko‘zga tashlanmoqda [2, – C. 56-61].

Ijtimoiy ong va boshqa ijtimoiy jarayonlar kabi o‘zgarishlarga ehtiyoj sezadi. Bu tabiiy jarayon sifatida amalga oshirilishi lozim. Ammo har bir transformatsiya jarayoni, avvalo ijtimoiy ongning negizida sodir bo‘lishi ham ijobiy, o‘z navbatida salbiy holatlarning keltirib chiqarishini hisobga olish lozim bo‘ladi. Buning asl mohiyatini aniqlashda sotsiologiya fani muhim hisoblanadi. Chunki, ushbu jarayonning amaliy xususiyatlarini aniqlash va shu asosda empirik tadqiqotlar o‘tkazish – jamiyatda ijtimoiy ongning o‘zgarishlari “ijobiylik effekti”ni oshirishga xizmat qiladi. Rossiyalik olim G.Diligenskiy ijtimoiy ongning shakllarini tadqiq qilar ekan, ularni jamiyatdagi quyidagi asosiy maqsad va vazifalarni bajarib berishi bilan bog‘laydi: a) umume‘tirof etilgan normativ qadriyatlar tizimi shakllantiradi; b) fuqarolarning o‘zaro munosabatlarini tartibga solish va yo‘naltiradi; v) funksional munosabatlarni ta‘minlaydigan boshqaruv va nazorat qiluvchi organlarning jamiyatdagi ijtimoiy normalarga muvofiqligini nazorat qilish hamda jamiyat a‘zolarining maqsadlari va ehtiyojlarini amalga oshirish va shu asosda birlashtirish [3, – C.5-16]. Aslida, ijtimoiy ong – jamiyatning ma‘lum sohasini tartibga solish uchun shakllangan rasmiy va norasmiy qoidalar shakllantirishning asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Yana bir ta‘rifga ko‘ra, tarixan shakllangan va jamiyat hayotini tartibga solishga xizmat qiluvchi qadriyatlar, ramziy belgilar birligi tushuniladi [4].

Sotsiologiya fanida ijtimoiy ong darajasini transformatsiyasi bilan bog‘liq jarayonda quyidagi aniq jihatlarning hisobga olish maqsadga muvofiqligi ajratiladi:

1. Jamiyatning ijtimoiy hayoti va uning obyektleri va subyektlari o‘rtasidagi munosabatlar;
2. Davlat siyosiy tizimidagi o‘zgarishlar va uning asosiy strategiy rivojlanish yo‘nalishlari;
3. Iqtisodiy o‘zgarish imkoniyatlarining jamiyat va davlat hayotidagi ahamiyati darajasi;
4. Turli guruh va aholi qatlamlarining etnik hamda konfessial mansubligi holati;
5. Geografik mansublik jihatdagi o‘zgarishlar [5].

Fikrimizcha, jamiyatning eng muhim ehtiyojlarini tartibga solish, boshqarish hamda yo‘naltirish nuqtai nazaridan ijtimoiy va uning shakllari har qanday boshqaruv asosidagi jamiyatlarda alohida ahamiyat kasb etadi, bunda ularning faoliyat mezonini, avvalo, aholining manfaatlarini birligi bilan ifodalanadi.

Ammo shuni alohida ta‘kidlash kerakki, jamiyatda ijtimoiy ong darajasining o‘zgarishi, sabablari, motivlari hamda uning kelajakdagi ta‘siri nuqtai nazaridan aniq bir nazariya yoki ilmiy to‘xtamga kelingan emas. Zamonaviy fanlarda bu borada ikki ilmiy qarash mavjud bo‘lib, unga ko‘ra, ijtimoiy ong: a) jamiyatda fuqarolarning umumiy qarashlarining yakdil bir shakli; b) alohida o‘rganiladigan ijtimoiy reallik sifatida» [6, – C.336].

Sotsiologiya fanida ijtimoiy ong jamiyatning o‘ziga xos ijtimoiy strukturasi sifatida talqin etadi. Chunki, jamiyatdagi barcha o‘zgarishlarning asosi ijtimoiy ong darajasidagi u yoki bu o‘zgarishlar doirasida amalga oshiriladi. Ijtimoiy ong va unga xos bo‘lgan o‘zgarishlarning o‘ziga

xos jihatlari mavjud. Zero, yuqorida ta'kidlaganimizdek, ijtimoiy ong darajasiga ta'sir etuvchi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy omillar alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan bu jarayonda ularning transformatsiyalashuvi amalga oshiriladi. Ammo ijtimoiy ongning barqarorligining o'ziga xos belgilari mavjud bo'lib, ular streotiplar, qadriyatlar, mentalitet hamda tarixiy rivojlanish qonuniyatlari bilan bog'liqligi hisoblanadi. Shu nuqtai-nazardan u to'g'ridan-to'g'ri transformatsion jarayonlarga duchor bo'lmasligi ham mumkin. Buning isboti sifatida jamiyatdagi o'zgarishlar, ayniqsa yangilanishlarning birdaniga qabul qilmaslik holatlarining uchrab turishini ko'rsatib bo'tishimiz mumkin. Jamiyatda ijtimoiy ong darajasining o'zgarishi – jamiyatning ijtimoiy munosabatlarini qay darajada ekanligini ko'rsatib beruvchi jarayondir. Bunday munosabatlarning gorizontaal va vertikal o'zgarishlar tendensiyasini aniqlash muhim hisoblanadi. Bu ayniqsa, zamonaviy, axborot rivojiga asoslangan davlatlar va jamiyatlarda muhim mavzulardan biri hisoblanadi. Har bir davlat o'zining rivojlanish darajasi turli-tumanligi, avvalo jamiyatdagi bilan farqlanadi. Bu jarayon jamiyatning ijtimoiy tuzilmalariga ham tegishli. Ammo ijtimoiy fanlarda ijtimoiy muhit, ijtimoiy ongning transformatsiyasining qay yo'nalishda kechishi masalasi muhimdir. AQSHlik olim N.Smelzer buni quyidagicha ifodalaydi: “ijtimoiy institutlar juda kamdan-kam hollarda uzoq vaqt davomida barqarorligini saqlab qoladi, buning asosiy sababi ularga ta'sir etuvchi sharoitlar hamda ularga ta'sir qilish holati doimiy ravishda o'zgarib turadi” [7, – C.79]. Jamiyatda aynan ijtimoiy institutlar, ijtimoiy ongning taraqqiyotida sodir bo'ladigan transformatsiyalashuv bilan bog'liq tadqiqotlar umumiy 3 yo'nalishga ajratiladi:

1. Jamiyatda fuqarolarning ijtimoiy holati darajasi, o'zgaruvchanligi muammolari;
2. Ijtimoiy institutlarga xos tadqiqotlar va ulardagi institutsional o'zgarishlar dinamikasiga oid tadqiqotlar;
3. Davlatlarning siyosiy tuzumida fuqarolarning moyilligi darjasiga (ijtimoiy, siyosiy, huquqiy ong) doir tadqiqotlar [8, –C.64-81]. Jamiyatning ijtimoiy onggi darajasi, uning real holatining transformatsiyaviy jarayonlardan o'tishi bu shu davlat va jamiyat barqarorligining ko'rsatkichi hisoblanadi. Boisi, fuqarolarning ijtimoiy onggi darajasi, uning potentsiali jamiyatda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar izchilligi, bosqichma-bosqichligini ta'minlash, avvalo boshqaruv muvozanatini shakllantirishda yetakchi ahamiyat kasb etadi. Fikrimizcha, ijtimoiy ong hamda uning subyektlari manfaatlariga xizmat qilishini hisobga olgan holda, ularning ehtiyojlari doimiy o'zgaruvchanlikka moyil bo'ladi, bu esa jamiyatda ijtimoiy ong ning manzarasida alohida ko'rinish kasb etadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash kerakki, ijtimoiy ong va insonlar harakatlari o'zaro bog'liqligini bir ma'noda talqin qilib bo'lmaydi. Ularning doimiy o'zgaruvchanlik xususiyatlari o'rganib borish lozim. Ijtimoiy ongning rivojida ijtimoiy institutlar bilan o'zaro bog'liqligini alohida aytib o'tish lozim. Bu hamkorlik o'rnatilmagan jamiyatlar inqirozga yuz tutadi, fuqarolar ijtimoiy birdamligi sustlashadi. Chunki, bir institutlar o'zlarining me'yoriy va huquqiy asoslari tufayli aktorlarning (fuqarolarning) xulq-atvori alternativalarini cheklaydilar, ikkinchi tomondan, ular faoliyat uchun keng imkoniyatlar yaratadi va oldindan aytib bo'lmaydiganlik xavfini minimallashtirishda alohida rol o'ynaydi. Aynan ijtimoiy institutlarning samarali va doimiy tarzda faoliyati, ijtimoiy ongning transformatsiyasi bir maromda, evolyutsion tarzda sodir bo'lishini ta'minlab beradi. Fikrimizcha, asosiy muammo – bu jarayonning uning ichki xususiyatlari, motivlari, yo'nalishlarini aniqlash va shu asosida yangi ijtimoiy munosabatlar tabiatini o'rganishdan iboratdir. Bu esa sotsiologiya fanining eng asosiy tadqiqot obyektalridan hamda o'rganish yo'nalishlaridan biri bo'lib qolaveradi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Быков И.А. Сетевая политическая коммуникация: Теория, практика и методы исследования: монография. - СПб.: ФГБОУ ВПО «СПГУТД», 2013. – С. 200.
2. В.Тян. Трансформация института власти в переходном обществе на этапе информационной революции. Theories and Problems of Political Studies. 2019, Vol. 8, Is. 2A P. 66.

3. Дилигенский Г.Г. Политическая институционализация в России: социально-культурные и психологические аспекты // Мировая экономика и международные отношения. 1997. № 7. – С. 5-12; № 8.
4. <http://www.onlinedics.ru/slovar/fil/i/institut.html>.
5. Немировский В. Г. Массовое сознание и бессознательное как объект постнеклассической социологии // Социс. 2008. № 2.
6. Бурдые П. Социология политики / пер. с фр.; сост., общ. ред. и предисл. Н. А. Шматко. М. : Socio - Logos, 1993. – 336 с.
7. Смелзер Н. Социология. – М.: Феникс, 1994. – С.79.
8. Гельман В.Я. «Transition» по-русски: концепции переходного периода и политическая трансформация в России: 1989–1996 // Общественные науки и современность. 1997. № 4. – С. 64-81.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 1

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000